

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.A.Abduraxmonov	
Adabiy asardagi nuring xususiyatlari va funksiyalari (O'zbek lirikasi namunda).....	460
A.B.Kosimova	
O'zbek adabiyotida hikoya va drabbilar.....	469
TILSHUNOSLIK	
M.Y.Mamajonov	
Muloqotni boshqarishda lisoniy va nolisoniy vositalarning o'rni	473
R.M.Shukurov, G.S.Jo'rabyeva	
Farg'ona viloyati toponomilarining sotsiolingvistik xususiyatlari.....	477
Z.V.Alimova	
Navoiyning "Saddi iskandariy" dostonidagi "Haroson" so'zi va uning morfologik belgilari xususida	483
F.X.Qosimova	
O'zbek tilshunosligida tibbiy terminologiya bo'yicha tadqiqotlar: sifat va miqdor tahlili.....	488
A.A.Ergashev	
Etnotoponimlar tadqiqi	496
H.Sh.Radjabova	
Terminologik lug'atlar tadqiqiga doir.....	502
S.A.Jabborova	
Morphological and syntactic analysis of the structure of medical terminology in the English and Uzbek languages.....	507
Sh.R.Amonturdiyeva	
Diniy uslub shakllanishining antropotsentrik va kognitiv asoslari	511
D.I.Mirzayeva	
Tillardagi turg'un o'xshatishlarning umumlingvistik statusi.....	517
X.F.Xaydarova	
Taqlid so'zlarning statistik tahlili (O'zbek tilining ikki va besh jildli izohli lug'atlari misolida).....	520
M.A.Hojiyeva	
Filolog mutaxassislarda terminologik kompetentlikni rivojlantirishning ahamiyati.....	524
I.A.Egamberdiyeva	
Metafora - til, madaniyat va ma'naviyat ko'zgusi	527
D.I.Mirzayeva, X.R.Mirzayeva	
O'zbek va Ingliz tillaridagi frazeologik birliklarda o'Ichov so'zlarning qo'llanilishi.....	531
Z.Sh.Ashurova	
Badiiy matnning lingvopoetik xususiyatlari va muallif individual uslubi talqini	535
I.T.Hojaliyev, G.S.A'zamova	
Adekvatlik va uni ta'minlovchi nolisoniy va lisoniy omillar.....	539
Z.M.Sobirova	
Til va ong munosabati L.S.Vigotskiy psixologik talqinida	545
V.A.Vositov	
So'z o'zlashtirish tillararo aloqani yuzaga keltiruvchi sotsiolingvistik omil sifatida	550
M.T.Abdupattoyev, X.P.Shodmonov	
Konvergensiya va uning sintaktik-stilistik funksiyasi	557
D.I.Khodjaeva	
Lingvodidaktika va metodika terminlari tavsifi, farqli jihatlari	562
O.M.Yusupova	
Ingliz va O'zbek maishiy ertaklaridagi asosiy tushunchalarni ifodalovchi leksemalarning semantik tahlili	567
M.V.Nasridinov	
"Maqsad" konsepti maydonida yotuvchi ingliz tilidagi morfemalarning qiyosiy tadqiqi.....	572
M.O.Batirkhanova	
Lexicographic analysis of somatisms in different languages	577
M.U.Mamadjanova	
Interpretation of epithetic compounds in linguistics	582
M.V.Nasridinov	
Ingliz va O'zbek tillarida "Maqsad" konseptining morfologik struktural, semantik tahlili	586
M.Y.Madiyeva	



UDK: 41+406

**INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA "MAQSAD" KONSEPTINING MORFOLOGIK
STRUKTURAL, SEMANTIK TAHLILI**

**MORPHOLOGICAL STRUCTURAL AND SEMANTIC ANALYSIS OF THE CONCEPT
"GOAL" IN ENGLISH AND UZBEK**

**МОРФОЛОГИЧЕСКИЙ СТРУКТУРНО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ КОНЦЕПТА
«ЦЕЛЬ» В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ**

Nasridinov Muxridin Vaslidin o'g'li 

Farg'onan davlat universiteti ingliz filologiyasi kafedrasini o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada zamonaliv tilshunoslikning dolzARB masalalarini o'z ichiga olgan qiyosiy tilshunoslik sohasi, hamda bu sohada o'z tadqiqot namunalarini yozib qoldirgan olimlar tadqiqotlari haqida ma'lumot berildi. Shu bilan birga maqolada ingliz va o'zbek tillarida "maqsad" konseptini voqealantiruvchi til birliklar leksik satharo qiyoslanadi va ularning maydon tabiatini turli tizimli tillarda qiyosiy tadqiq qilinadi. Maqsad konsepti maydonida yotuvchi leksik til birliklari turli adabiyotlardan keltirilgan misollar orqali tahlil qilinadi. Shu bilan birga, har ikki tilda leksik birliklarning o'xshash va noo'xhash jihatlari atroflicha tahlil qilinadi.

Аннотации

В этой статье представлена информация о области сравнительного языкознания, охватывающей актуальные вопросы современной лингвистики, а также об исследованиях ученых, которые записали образцы своих исследований в этой области. При этом в статье сравниваются лексические уровни языковых единиц, реализующих понятие «цель» в английском и узбекском языках, а их полевой характер сравнительно исследуется в различных системных языках. Лексические единицы языка, лежащие в поле целевого понятия, анализируются на примерах из различной литературы. При этом подробно анализируются сходства и несходства лексических единиц в обоих языках.

Abstract

This article provides information on the field of comparative linguistics, covering current issues of modern linguistics, as well as on the research of scientists who have recorded samples of their research in this field. At the same time, the article compares the lexical levels of linguistic units that implement the concept of "purpose" in English and Uzbek, and their field character is comparatively studied in various system languages. The lexical units of the language that lie in the field of the target concept are analyzed using examples from various literature. At the same time, the similarities and dissimilarities of lexical units in both languages are analyzed in detail.

Kalit so'zlar: kognitiv tilshunoslik, konsept, "maqsad" konsepti, "maqsad" lingvokognitiv maydoni, morfema, leksema, sodda leksema, qo'shma leksema

Ключевые слова: когнитивная лингвистика, понятие «цель», лингвокогнитивное поле «цель», морфема, лексема, простая лексема, сложная лексема

Key words: cognitive linguistics, the concept of "goal", the linguocognitive field of "goal", morpheme, lexeme, simple lexeme, compound lexeme

KIRISH

Qiyoslanayotgan zamonaliv ingliz va o'zbek tillarida "maqsad" konsepti va uni voqealantiruvchi til vositalarini lingvokognitiv hamda lingvokulturologik jihatdan tizimli tadqiq qilish uchun "maqsad" konsepti maydonini tizimli taxlilga tortish maqsadga muvofiqdir.

Tilshunoslikda semantikaning asosiy vazifasi ma'nolari bilan bog'langan so'zlarni birlashtiradi. Bunday so'zlar, odatda bir leksik – semantik guruyni tashkil qiladi. Jumladan, rang bo'yoqni bildiruvchi so'zlar, vaqtini, harakat – holatni ifodalovchi so'zlar alohida semantik maydonga egadir. Lingvistikada "ma'no" (mazmun) umumiyligi bilan birlashgan va belgilanayotgan hodisalarining tushunchaviy, predmetlik yoki vazifaviy (funksional) o'xhashlikni aks ettiruvchi til birliklari (asosan, leksik birliklar) yig'indisi maydon sifatida belgilanadi.[2.380]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Lisoniy birlıklarning ma'lum ma'no asosida birlashuvi, ma'lum bir tildagi lug'aviy birlıklarni ana shunday mazmuniy uyalarga birlashtirish sharq tilshunosligida yetarlicha rivoj topgan. Keyinchalik esa XIX asrda lisoniy birlıklarni mazmuniy guruhlarga ajratish g'oyasi Yevropada avj ola boshladi. Shunga ko'ra bu nazariya Yevropa tilshunosligi bilan uzvii bo'g'lanib qoldi.

XIX asrda leksik (umuman, til) birlıklar umumiyligiga M. Porkovskiy tomonidan etibor qaratildi. Maydon tushunchasining nazariy talqini. I.Trir, G.Ipsin, V.Porsig, L.Vaysgerber, A.Yolles ishlarida ko'zga tashlanadi, keyinroq A.A.Umiseva, N.I.Filicheva, Yu.N.Karaulov, G.S.Shchur kabi ko'plab olimlar ishlari bilan bu nazariya yanada rivoj topdi. [4.581]

Kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologiyaning asosiy o'rganish obyekti sanaladigan "konsept" nazariyasi rivojlanib, tobora sayqal topib bormoqda. Shu ma'noda olganda, boshqa konseptlar qatori "maqsad" konsepti ham o'ziga xos lingvokognitiv asosga va lingvokulturologik tavsif hamda tasnifga davogar bo'lgan mental voqelikdir.

Quyida biz "maqsad" konseptini ifodalovchi, ya'ni voqealantiruvchi sathlararo til birlıklarining har birini empirik misollar asosida ko'rib chiqishga harakat qilamiz. Eng avvalo har bir til birligining o'rganilishi va tahlili muhim sanaladi. Shu sababli maqsad konsepti doirasida yotuvchi semantik maydon tahliliga to'htalib o'tsak.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Leksik sath birligi leksemadir. So'z va leksema atamalari ko'p hollarda aralash holda qo'llanadi. Lekin ular bir-biridan farq qiladi. Leksema semema va nomemalarning o'zaro munosabatidan tashkil topgan butunlik sanalib, uning mazmuniy mundarijasi atash, ifoda va vazifaviy semalar munosabatidan iborat bo'ladi. Har qanday leksemada bu semalardan "atash" semasi albatta ishtirok etadi. Shuning uchun bu sema leksemaning markaziy semasi, qolgan semalar esa chegara semalar hisoblanadi. Masalan, gapirmoq, do'ng'illamoq leksemalari bir xil atash semasiga ega bo'lib, ifoda semasi bilan bir-biridan farq qiladi. Bu jihatdan so'z atamasi leksemalardan boshqa birlıklarni ham, ya'ni atash semasiga ega bo'lmagan birlıklarni ham o'z ichiga oladi. Masalan, ammo, uchun so'z, lekin leksema emas. Chunki ularning atash semasi mavjud emas. Faqat grammatik ma'noga ega. Demak, so'z grammatik ma'noga ega bo'lgan leksemalarni va yordamchi, undov, modal nomlari bilan yuritiluvchi birlıklarni o'z ichiga oladi. Leksema leksik sath birligi sanaladi. U grammatik ma'no va bu ma'noni ifodalovchi shaklga ega bo'lib, so'zga, ya'ni morfologik birlikka aylanadi. Masalan, daraxt "tanadan shoxlanuvchi ko'p yillik o'simlik" atash semasiga ega bo'lishi bilan leksema. Bu leksema otlik, bosh kelishiklik, birlik semalariga va bu semalarni ifodalovchi shakllarga ega bo'lishi bilan so'zga, morfologik birlikka aylanadi. Keling ularni alohida-alohida ko'rib chiqsak:

O'zbek tilida:

Sodda leksema. ot. maqsad, umid, muddao; *Sifatdosh.* Istalgan, rejalashtirilgan; *harakat nomi*, rejalashtirish; *ravishdosh*, tilab, istab va ha kz.

Yasama leksemalar. *Sifat*, maqsadli, umidli, umidbaxsh, maqsadsiz, umidsiz, noumid va ha kazo.

Qo'shma so'zlar. Orzu-istik, orzu- umid.

Ingliz tilida:

Sodda leksema. Ot.purpose, aim, goal, ambition, aspiration, desire, dream, idea, intent, intention, object, plan, point, target; *yasama leksemalar*, sifat, purposeful, aimful; *ravish*, purposefully, aimfully; *infinitive*, to aim, to intent, to plan, to desire; *gerundi*, planning, dreaming, aiming;

Qo'shma leksemalar. purpose-build, dream-boat, plane-load va h.k.z.

So'z va leksema atamalari ko'p hollarda aralash holda qo'llanadi. Lekin ular bir-biridan farq qiladi. Misol uchun, o'zbek tilida maqsad, niyat, ilinj, istak, xohish, tilak, murod, muddao, umid, reja, orzu kabi leksemalar bir xil atash semasiga ega bo'lsada, lekin ifoda semasi bir-biridan farq qiladi. Keling ularni alohida-alohida ko'rib chiqsak:

Ot. MAQSAD - [a. – niyat, yuqori tilak; intilish] 1 Erishish, amalga oshirish uchun ko'zda tutilgan narsa, murod, muddao. O'qishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ymoq. Maqsadga yetmoq. Maqsadga erishmoq. "Xoljonbekaning shaharga tushishidan maqsadi Shernazarboyni bir ko'rish edi." [1.2.3] Ingliz tilida Oxford Advanced Learner's Dictionary lug'atiga murojaat qiladigan bo'lsak,

“maqsad” yani “purpose” so‘ziga shunday ta’rif berilgan: “The intention, aim or function of something, the thing that something is supposed to achieve”. Misol uchun: “I came on purpose to find you, Jane Eyre,’ said she; ‘I want you in my room; and as Helen Burns is with you, she may come too.” [2.130]

Sifat. UMIDBAXSH - [ishonch, umid bag‘ishlovchi] Kishida ishonch va umid hosil qiladigan; kelajakka umid, ishonch bilan qarashga undaydigan; umid bag‘ishlovchi. “Yo‘ichi bu gal ham kasalning ko‘nglini ko‘tarish uchun, unga taskin beruvchi umidbaxsh so‘zlar aytdi.” [3.27]. Ingliz tilida ushbu so‘zga mos ravishda “promising” so‘ziga shunday ta’rif berilgan: “showing signs of being good or successful”. Masalan , “The research produced promising results.”

Fe'l. TILAMOQ - Biror istak, tilak, niyat bildiruvchi so‘z, gap aytmoq. “Hazratim, men mungliq qizingiz sizga xudodan Shayx Sa‘diyning umrini tilayman! Ilohim yuzga kiring!” [4.31] Ingliz tilida “tilamoq” yani “wish” leksemasiga quyidagicha ta’rif keltirilgan: “To want something to happen or to be true even though it is unlikely or impossible”. “No doubt, no doubt, madam; and now I wish you good morning.” [7.30]

Harakat nomi. REJALASHTIRISH. “Rejalashtirish - Milliy iqtisodiyotning turli darajalarida ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni tartibga solish va boshqarish shakllari majmui.” [3.40] Ingliz tilida, “planning” yani, “the act or process of making plans for something”. Costs can be reduced by effective contingency planning.

Sifatdosh. ISTALGAN . “Pasportni propiskadan qat’iy nazar istalgan hududdan olish tartibi joriy etilishi mumkin” [4.33] Ushbu so‘z ingliz tilida “desired”: “The medicine did not achieve the desired effect”.

Ravishdosh. TILAB. “Men seni Xudodan tilab oldim, do’st, gohida pinhona yig‘lab oldim , do’st”.

Ko‘rinadiki, leksema va so‘z tilning ikki sath birligini ifodalaydi. Misol uchun, o‘zbek tilida maqsad, niyat, ilinj, istak, xohish, tilak, murod, muddao, umid, reja, orzu kabi leksemalar bir xil atash semasiga ega bo‘lsada, lekin ifoda semasi bir-biridan farq qiladi. Yuqorida misollardagi eng asosiy tushuncha “maqsad” doirasida amalga oshadi.

XULOSA

Turli tizimli tillarda “maqsad” konseptini verbal va noverbal vositalarning lingvomadaniy hamda lingvopragmatik jihatdan turli xil misollar orqali ifodalanishini yuqorida ko‘rib chiqdik. Ushbu vositalar tilimiz va madaniyatimizning ajralmas qismiga aylanib qolganligini hech kim inkor qila olmaydi.Ushbu misollarning yozma va og‘zaki nutqda faol qo‘llanilishini biz ko‘plab asarlarda uchratishimiz mumkin. Shu bilan birga, ko‘plab misollarni kundalik hayotimizda ham qo‘llaymiz va duch kelamiz. Ularning turli tizimli tillardagi qiyosiy tahlili til o‘rganuvchilar uchun muhim qo‘llanma hamda ikki xalq tillarini bog‘lashda muhim ko‘prik vazifasini o‘taydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Oxford Advanced Learner’s Dictionary, 7th Edition.
2. Popov 3.D. Sternin I А когнитивная лингвистика Учебное издание федеральное агентство по образованию Варонежский государственный университет Москва АСТ:Восток-Запад(2007. 3с).
3. Porkovskiy M. М “Избранные работы по языкоznанию” М. Nauka 1954.-382 с.
4. Jumaniyoz Sharipov. “Xorazm” (roman). www Ziyouz.com kutubxonasi.
5. Kubryakova Y.S. konsept//Y.S. Kubryakova, V.Z. Demyankov, Y.G. Pankrlas, L.G.Luzina
6. “Лингвистический энциклопедический” словарь. М. Собетская энциклопедия.1990.380c.
7. Maslova V.A. когнитивная лингвистика.Учебное пособие. Тетрасистема 2008(22c).